

GOSPITAL TA'LIMDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA DIDAKTIK O'YINLAR VA ULARNING AHAMIYATI

Teshaqo'ziyeva Sayyora Dilmurod qizi

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi "Mehrlil maktab" davlat ta'lim muassasasi Farg'ona viloyati filiali tarbiyachisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada gospital ta'limda maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilariga didaktik o'yinlarning qo'llanilishi va ulardagi didaktik o'yinlarga qiziqishi haqida so'z boradi. Bu maqolada didaktik o'yinlar orqali pedagog, ona va boladagi hamkorlik nazarda tutilgan. Pedagoglar ushbu maqoladan o'z faoliyatlarida qo'llashlari mumkin.

Kalit so'zlar: Ta'lim, gospital, Mehrlil maktab, individual, didaktik, pedagog, maktabgacha ta'lim.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida tubdan o'zgarishlar bo'lib kelmoqda.

O'zbekiston hududini har bir viloyat, tuman, qishloqlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni qamrab olish deyarli o'z samarasini berib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qarorlari bilan chekka hududlardagi bolajonlar uchun zamonaviy texnologiyalar asosida maktabgacha ta'lim binolarini qurib foydalanish uchun topshirildi.

2022-yil 5-maydagi Vazirlar Mahkamasining "Gematologiya, onkologiya, klinik immunologiya, boshqa statsionar va uzoq muddatli ambulator davolanishda bo'lgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya hamda umumiy o'rta ta'lim berish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq O'zbekistonda ilk marotaba Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi Markazida gospital maktab "Mehrlil maktab" tashkil etildi.

Gospital ta'lim - uzoq muddatli davolanayotgan va sog'lig'i sababli ta'lim muassasasiga bora olmaydigan bolalarni o'qitishni tashkil etish bilan bog'liq pedagogikaning bo'limidir. Gospital pedagogikasi pedagogikaning bir qismi bo'lib, o'z e'tiborini o'quvchilarni, maktabgacha yoshdagi bolajonlarning alohida toifasiga — uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarga qaratadi. Gospital ta'limda ham maktabgacha yoshdagi bolajonlar uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida faoliyatlar guruhiy va individual olib boriladi.

Gospital ta'limning maktabgacha ta'lim tizimida ham "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida faoliyatlar olib boriladi.

Gospital ta'limda maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilari guruhiy faoliyatlarga onajonlari bilan birga kiradigan bolajonlarga til va nutq markazi, qurish yasash, konstruksiyalash, matematika markazi, san'at markazi, ilm -fan va tabiat markazlarida faoliyatlar bolalar qiziqishlari asosida olib boriladi. Individual ta'lim olayotgan tarbiyalanuvchilarga esa xonalarida legolar orqali turli xil buyumlar yasash va ularni kayfitini ko'taruvchi har xil didaktik va ta'limiy o'yinlar olib boriladi.

Guruh xonasiga kirilayotgan vaqtlarda albatta bolajonlarimiz qo'llari antiseptik vosita orqali dizenfeksiya qilinadi. Guruh honasiga kirayotgan har bir tarbiyalanuvchi va ularning onajonlari tibbiy niqobda bo'lishlari shart.

Guruh xonasida faoliyatlarga kirgan bolajonlar va ularning onajonlarini bir-birlariga bo'lgan mehrlari yanada oshadi. Sababi tarbiyachi ota-ona va tarbiyalanuvchi hamkorligida olib borilayotgan faoliyatlarda ko'proq ona va bola birga ishlaydi.

Buning natijasida ona ham bola ham bir-biridagi kamchiklarni birgalikda bartaraf etadi. Ona va bola birgalikda hamkorlikda rasmlar chizishadi, tayyor rasm eskizlarini bo'yashadi. Har xil legolar orqali turli buyumlar yasashadi. Til va nutq markazida esa ona va bola birgalikda har xil rasmlar orqali kichik hikoyalar tuzishni o'rganadilar.

Matematika faoliyati orqali yoshiga asosan son va sanoq bilan tanishadilar.

6-7 yoshdagi bolajonlar esa qo'shish va ayrish, katta va kichik tushunchalarni, fazoviy tasavvurlarni, mo'ljal olishni, qog'oz satxini aniqlashni o'rganadilar. Bolajonlar uchun savodga o'rgatish faoliyatlari ham olib boriladi. Bunda bolajonlar tovush va harflarni farqlashni, unli va undosh harflarni va so'zlarni bo'g'inga bo'lishni o'rganadilar.

Kichik yoshdagi bolajonlarimiz uchun kunning ikkinchi yarmida badiiy adabiyot olib boriladi. Bunda bolajonlarimiz har xil hikoyalar, she'rlar, ertaklar eshitishadi. Kunni maroqli o'tkazadilar. Jajji qo'lchalari doimiy davolanishda igrallar bilan do'st bo'lgan bolajonlarni mayda qo'l matorikalarini rivojlantirish uchun turli xil o'yinlar olib boriladi. Bu albatta tarbiyalanuvchilarni oz bo'lsa ham kayfiyatlari ko'tarilishiga yordam beradi.

Kasallik tufayli organizmida noqulayliklar his qilayotgan, toliqqan maktabgacha yoshdagi bolalarni, turli xil o'yinlar, orqali faoliyatlarga jalb qilish mumkin. Bu o'yinlar ba'zan jamoaviy o'yinlar bo'lsa, ba'zida esa yakka holda (individual) o'ynaydigan bo'lishi mumkin. Bu albatta pedagogning mahoratiga bog'liq. Tashqaridan qaraganda bola xuddi o'yin bilan mashg'uldek bo'lib ko'rinsada, aslida u o'ynab o'rganayotgan yoki o'rganishga qiziqtirilayotgan bo'ladi. Bunday usul maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilariga va ular bilan birga ota-onalariga jamoada ishlashga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda "Didaktik" o'yinlar bilan tanishtirish va ular bilan didaktik o'yinlarni birgalikda o'ynash ularni qiziqishlarni oshishiga yordam beradi. Ular imkoniyat darajasiga ko'ra tarbiyalanuvchilarni didaktik o'yinlar orqali atrof-muhitga qiziqishlari, atrofda insonlar bilan muloqot qilishlariga, so'z boyliklari oshishidagi munosabatlar haqidagi tushunchalarni yuqori darajada o'zlashtirishiga yordam bera oladi.

Gospital maktabning maktabgacha yoshdagi bolalari qiziqishlari asosida faoliyatlar olib boriladi. Maktabgacha ta'lim tizimida asosan o'yin faoliyatlaridan foydalaniladi. Bunda bolajonlarni ruhan va jismonan charchab qolmasliklari, o'tilgan faoliyatlarni yaxshi qabul qilishlariga yordam beradi.

Gospital maktablarda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolajonlar bilan:

"4-chisi ortiqcha", "Nimani o'rni o'zgardi", "Baland past", "Kim nimani yaxshi ko'radi", "Soat", "So'z tanla", "Qo'ng'iroqcha", "Aks sado", "Atrofimizdagi tovushlar", "Oyinning xislatlari", "Kim qayerda yashaydi?", "Kim ko'p topadi?" kabi didaktik o'yinlar ko'proq tarbiyalanuvchi bolajonlar bilan o'yin olib boriladi.

Bu o'yin orqali bolajonlar xotirasini mustahkamlash, so'z boyligini oshirish. Pedagog bir-biriga mos bo'lgan 3 ta bir xil 1 ta boshqacha buyumni yoki rasmlarni bolajonlar oldiga qo'yiladi. Bolajonlar esa qaysi biri-ortiqcha ekanini topishlari kerak. Masalan qish fasliga mos bo'lgan rasmlarni qo'yamiz. Qorbobo, chana, kapalak, va qorqiz rasmlarini qo'yamiz. Shular ichidan qish fasliga mos bo'lmagan rasmni olib tashlaydilar. Demak, bu rasmda kapalak ortiqcha.

"Baland past" didaktik o'yini bolalarda ovozning kuchi haqida tushuncha olishga, ularda ovozni o'zgartirish ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi. Pedagog va kichik o'yinchoq mashinani o'yin uchun tayyorlaydi. Katta mashina yurganida qanday signal chaladi?

Bi-bii-biiip, bi-bii-biiip.

Bolajonlar tarbiyachining ovozini qaytaradilar. Kichik mashina yurganida qanday ovoz chiqaradi? Bi-bii. Kichik mashina sekinroq ovoz chiqaradi. Tarbiyachini bolajonlar yana ovozini

qaytaradilar. Endi esa bolajonlar e'tiborliroq bo'ladi, tarbiyachi katta mashinani ko'rganda balandroq ovoz chiqaradilar, kichik mashinani ko'rganlarida esa sekinroq ovoz chiqaradilar.

“Atrofimizdagi tovushlar” didaktik o'yini orqali bolajonlarda eshitish qobiliyati va xotirani mustahkamlash rivojlanadi.

Bu didaktik o'yinda tarbiyachi bolalarga atrofimizda turli ovozlarning borligini va bu gal ayrim tovushlarni birgalikda talaffuz etishlarini aytadi. Bolalar, chaqaloq yig'laganda qanday ovoz chiqaradi?

A-a-a-a-a qaytaramiz a-a-a-a-a. Ayiqchani tishi og'riyapti u qanday ovoz chiqaradi?

O-o-o-o-o-o-o ,o-o-o-o-o. Samolyot osmonda uchayotganida esa u-u-u-u-u degan ovoz eshitiladi. Bolalar qani endi u-u-u-u deb qaytaramiz. tarbiyachi bolalarning tovushni imkon qadar cho'zibroq talaffuz qilishlariga e'tibor qaratadi.

“Aks sado” didaktik o'yini bolalarning eshitish va talaffuz qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Tarbiyachi “Aks sado” didaktik o'yinida bironta tovushni talaffuz qiladi, bolalar esa eshitgan tovushlarini qaytarib aytishlari kerak bo'ladi. A-a-a-, a-u,

i-i-i, u-u-u, o-o-o kabi tovushlarni qaytarishi mumkin.

“Soat” didaktik o'yini bolalarning eshitish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Tarbiyachi bolalardan soat millari qanday ovoz chiqarishini so'raydi. Bolalar esa chiq-chiq, tiq-tiq deb o'zlari eshitgan ovozini talaffuz qilib beradilar.

“Oyimning xislatlari” didaktik o'yini orqali bolajonlarni so'z boyligini oshirish, ularni ravon gapirishga o'rgatish maqsad qilib olingan.

Tarbiyachi bolalarga oyingizni sifatlarini sanang deb aytadi. Bolalar esa oyisi haqida o'z bilganicha ta'rif aytishi kerak. Misol uchun, mening oyim pazanda, mening oyim chaqqon deyishlari mumkin. Bolalar o'z oyisini qanday kasbda ishlashini ham aytib beradilar.

“Kim qayerda yashaydi?” didaktik o'yini bolalarni mantiqiy fikrlashga, ularning so'z boyligini ko'payishiga yordam beradi.

Tarbiyachi bolalarga “Kim qayerda yashaydi?” deb savol beradi. Tarbiyachi ko'rsatgan suratdagi hayvonga qarab tarbiyalanuvchilar ushbu hayvonning qayerda yashashini aytishlari kerak. Misol uchun tuya-sahroda, bo'ri-o'rmonda kabi javoblarni berishadi.

Xulosa: Gospital maktabda maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilar uchun didaktik o'yinlar faoliyatlarni o'zlashtirishlariga, kayfiyatlarini ko'tarishiga yordam beradi. Masalan “Oyimning xislatlari” o'yinlari orqali bolajonlar o'z onalariga ayta olmagan gaplarini ham shu o'yin orqali chiqarib bera olishadi. Bunda ona va bolani bir-biriga bo'lgan mehrini o'sishiga, qalban yaqin ekanliglarini his qilishlariga yordam beradi. “4 chisi ortiqcha” o'yini orqali esa bolalar xotirasi mustahkamlanishiga, fikrlashi o'sishiga, so'z boyliglarini esa oshishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun

“Ilk qadam” davlat o'quv dasturi.

2. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etish. G.M.Nazirova Toshkent.
3. Tarbiyachi kitobi didaktik o'yinlar. N.Erxonova, Z.Ro'ziyeva.